

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**TURSUNKULOVA SHAXNOZA TUYCHIEVNA**

**TASAVVUF FALSAFASIDA GO‘ZALLIK PARADIGMASINING  
IMMANENT VA TIZIMLI ASOSLARI**

**09.00.03 – Falsafa tarixi**

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Contents of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract**

**Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna**

Tasavvuf falsafasida go‘zallik paradigmasining immanent va tizimli asoslari ..... 3

**Турсункулова Шахноза Туйчиевна**

Имманентные и системные основы парадигмы красоты в философии тасаввуфа..... 31

**Tursunkulova Shakhnoza Tuychievna**

Immanent and systemic foundations of the paradigm of beauty in the philosophy of tasawwuf..... 63

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 68

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**TURSUNKULOVA SHAXNOZA TUYCHIEVNA**

**TASAVVUF FALSAFASIDA GO‘ZALLIK PARADIGMASINING  
IMMANENT VA TIZIMLI ASOSLARI**

**09.00.03 – Falsafa tarixi**

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.DSc/Fal98 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Mahmudova Guli Tilabovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Yunusova Gulandom Samiyevna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Agzamxodjayeva Shahnoza Saitmatmabovna**  
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (8366) 235-13-38, 235-64-90; faks: (8366) 231-15-40, (8366) 235-27-24; e-mail: rektor@samdu.uz, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№\_\_\_\_-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (8366) 235-19-38, 235-64-90; faks: (8366) 231-15-86, (8366) 235-27-24)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**Sh.Sh.Negmatova**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

**X.A.Djurakulov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

**A.R.Samadov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,  
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahondagi globallashuv jarayoni, millatlararo integratsiya, sivilizatsiyaviy o'zgarishlar jamiyat taraqqiyoti va rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Ammo mazkur keng ko'lamli o'zgarishlar ijtimoiy-ma'naviy yuksalishga mutanosib bo'lmay, qator salbiy holatlar, ya'ni odamlar o'rtasida jinoyat, qotillik, loqaydlik, shafqatsizlik, giyohvandlik, boylikka ruju qo'yish, jamiyatda beqarorlik bilan bog'liq turli xavf-xatarlarni yuzaga keltirmoqda. Ma'naviy qoloqlik (inson qadrini yerga urish), madaniy inqirozlar (turli fojealar, urush), ma'naviy qo'pollik (fitna-fasod, yolg'onchilik, aldov, xiyonat) kabi salbiy jihatlar ko'payib borayotgan murakkab davrda borliq, olam, hayotni qadrlash, uning tub mohiyatini tushunish, ilm-ma'rifat, axloq, ma'naviyatni yuksaltirish, vatanga sadoqat, bag'rikenglikni go'zallik mezonlari bilan asoslab berish zaruriyati vujudga kelmoqda.

Jahonning ko'plab ilmiy tadqiqot muassasalari hamda ilmiy markazlarida Markaziy Osiyo – Renessans davrida erishgan ilmiy yutuqlar, xalqlarning hayoti, turmush tarzi, urf-odat va an'analarining milliy va umumbashariy xususiyatlari, tafakkur tarzi rivojida tasavvuf ta'limotida shakllangan go'zallik segmentining o'ziga xos o'rnini bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, tasavvuf ta'limotining paydo bo'lishidagi tarixiy zaruriyat, diniy va dunyoviy go'zallikning mutanosibligi, ijtimoiy transformatsiyaviy jarayonlari, jamiyatda adolat va barqarorlikni ta'minlashda diniy qadriyatlarning o'rnini inkor etmaslik, uni shaxs kamolotining bir shakli sifatida ko'rish, axloq, madaniyatning shakllanishida diniy mezonlarning o'rnini to'g'ri baholashga oid ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, tasavvuf ta'limotida go'zallik kategoriyasining tarixiy va zamonaviy ahamiyatini, xususan, immanent jihatlarini tadqiq etish hozirgi kunda yanada dolzarb bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda tariximizni, ajdodlarimiz ma'naviy merosining asl mohiyatini o'rganish, ayniqsa, tasavvuf ta'limoti va mutasavvuf olimlari, shoirlar asarlariga eski, unutilgan tarix deb emas, balki milliy va umuminsoniy qadriyat, tarixiy tajriba, go'zallik paradigmalariga boy tarixiy-madaniy yodgorlik, inson ma'naviyatini yuksaltiruvchi bebaho hayotiy dastur sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. "Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim."<sup>1</sup> Yangi O'zbekiston paradigmasining ilmiy-metodologik asosini belgilab beruvchi bu yo'llanma tadqiqotning mohiyatini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rnini va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari va 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: O'zbekiston, 2021. – 34 б.

tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning bajarilishiga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi**<sup>1</sup>. Hozirgi davrda tasavvuf ta'limotining metodologik hamda murakkab mohiyati, tarixiy rivojlanishi va ahamiyati masalasiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, International association of sufizm, Stouni Bruk Universiteti - Department of Asian & Asian American Studies Stony Brook University (AQSH), McGill University, Institute of Islamik Studies (Kanada), Kembridj, Oksford, London universitetlari (Buyuk Britaniya), The Institute for Islamik World Studies, Zayed University (BAA), Qohira universiteti (Misr), Sorbone universiteti (Fransiya), Istanbul universiteti (Turkiya), Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya), O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti, Buxoro davlat universiteti, Samarqand davlat universitetlari (O'zbekiston)da olib borilmoqda.

Dunyoda tasavvuf ta'limotining paydo bo'lishi, uning falsafiy, badiiy-estetik, tarixiy mohiyatini o'rganish, go'zallikning tasavvufiy mohiyatini tadqiq etish bo'yicha jahonda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda quyidagi ilmiy natijalar olingan: tasavvuf ta'limoti va falsafasini turli shakllarda ommaga tanitish, so'fiylik tamoyillari bilan ilmiy tamoyillar o'rtasidagi munosabatni yoritib berish, tasavvufning turli maktablari va tariqatlari o'rtasidagi umumiylik va farqli tomonlari, o'ziga xos xususiyatlari (International association of sufizm, AQSH); insonning kelib chiqishi hamda uning trassendent dunyoga qaytishi masalalari, o'rta asrlar musulmon falsafasining ma'naviy va intellektual yuksakligini zamonaviy dunyoga qaytarish ahamiyati (Department of Asian & Asian American Studies Stony Brook University, New-York), tasavvuf ta'limotining tarixiy jihatlari, tasavvuf allomalari asarlari tarjimalari, suluk yo'l tariqatlari (Kembridj, Oksford, London universitetlari, Buyuk Britaniya), tasavvuf ilmining keng yoyilishi, uning diniy mohiyati, zamonaviy ko'rinishlari (The Institute for Islamik World Studies, Zayed University, BAA), tasavvuf ilmi bilan shug'ullangan allomalar, tasavvufning turli masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar (Qohira universiteti, Misr), islom va tasavvuf falsafasi tarixi tizimli o'rganilgan (Sorbone universiteti, Fransiya), islom madaniyati, islom ilmi, tasavvuf ilmiga oid izlanishlar olib borilgan (Istanbul universiteti, Turkiya), tasavvuf amaliyotidagi o'z-o'zini bilish va takomillashtirish

<sup>1</sup> Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi: <https://ias.org/>; <https://www.mcgill.ca/islamicstudies/>; <https://www.stonybrook.edu/commcms/asianamerican/>; <https://bolgar.academy/sveden/common/filefile:///C:/Users/User/Desktop/суфизм%20кито%20книшники.pdf>; <https://iphras.ru/> va boshqa manbalar asosida amalga oshirilgan.

tajribasini zamonaviy insonning betakror va go‘zal “men”ini shakllantiruvchi istiqbolli rejalar tasnifi, tasavvuf ma’naviy merosini bilish insonni ma’naviy, estetik, intellektual jihatdan shakllantirishi haqidagi (Sankt-Peterburg universiteti), tasavvuf merosining diniy mohiyati, xilma xilligi, mutasavviflar merosi tadqiq etilgan (O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi), Tasavvuf allomalari ijodi tadqiq etilgan, asarlari tarjimalar qilingan (Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti), tasavvuf tariqatlari, tasavvuf ilmidagi falsafiy jihatlar asoslangan (O‘zbekiston Milliy universiteti), tasavvuf suluklari, so‘fiylik an‘analari, so‘fiy allomalar qarashlarining turli aspektlari aniqlangan (Buxoro davlat universiteti), so‘fiylik manbalari, she‘riyati, adabiyoti, falsafasi, tarixi bo‘yicha (Samarqand davlat universitetlari, O‘zbekiston) keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda.

Jahonda tasavvuf falsafasida go‘zallik kategoriyasi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan, o‘rta asrlar davri sharq falsafasida tasavvuf falsafasining konseptual-metodologik asoslari; tasavvuf ta‘limoti negizida shakllangan ijtimoiy-ma’naviy, madaniy taraqqiyot qonuniyatlarini asoslash; tasavvufda diniy, axloqiy, ustoz-shogird munosabatlari xarakteridagi mohiyatni tadqiq etish; insonning bilishi, go‘zallikni tushunishida tasavvuf falsafasining tutgan o‘rnini tadqiq etish; mafkuraviy, madaniy globallashuv sharoitida ma’naviy strategiya asoslarini ishlab chiqishda ajdodlarimiz tarixiy merosini chuqur o‘rganish, qadriyatli jihatlarini aniqlash.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahonda, tasavvuf ta‘limotining paydo bo‘lishi, tarixiy rivojlanish bosqichlari, strukturasi, boshqa tarixiy ta‘limotlar bilan qiyosiy tahlili, uning inqiroziga oid muammolarga ingliz olimlari A.J.Arberry, A.M.Shimmel, Dj.S.Trimingem<sup>1</sup>, yapon, hind, eronlik sharqshunoslar T.Izutsu, Idris Shoh, H.Korbin ishlarida alohida e‘tibor qaratilgan<sup>2</sup>, tasavvuf tarixi, tasavvuf ilmi allomalari dunyoqarashi, falsafiy-irfoniy ta‘limoti U.Chittik, D.Knishning izlanishlarida chuqur tadqiq etilgan, mutasavvuf allomalar asarlari tarjima qilingan<sup>3</sup>.

MDH mamlakatlarida sharqshunos olimlar V.V.Bartold, Y.E.Bertels, A.N.Boldirev, V.A.Gordlevskiy, I.P.Petrushevskiy, A.T.Tagirjanov<sup>4</sup> Markaziy Osiyo va Movarounnahr tarixida tasavvuf falsafasining o‘rni, sufizm va sufizm adabiyoti, uning ijtimoiy, axloqiy, badiiy jihatlarini, zamonaviy tadqiqotlarda

<sup>1</sup> Arberry A. Sufism. – L.: George Allen and Unwin LTD, 1950. – 141 p; Шиммель А.М. Мир исламского мистицизма. – М.: 2012. – 58 с; Schimmel A.M. A life of learning. N.Y.: 1993. – 13 p.

<sup>2</sup> Izutsu T. Sufizm and taosizm. – P.: SUHAIL ACADEMY LAHORE, 1983. – 495 p; Shah, Idries. The Sufism. – L.: Octagon Press, 1977, 1964. – 54 p; Corbin H. History Of Islamic Philosophy. – L.: New York City: Kegan Paul International Ltd, 1993. – 445 p.

<sup>3</sup> William C. Chittick. Sufism: A Short Introduction. Oneword, 2000, William C. Chittick. The Heart of Islamic Philosophy. Oxford University Press, 2001; Кньш А.Д. Мусулманский мистицизм. – М.: С.П.: Диля, 2004. – 464 с; Кньш А.Д. Ислам в исторической перспективе: начальный этап и основные источники. – К.: Изд-во Казан. ун-та, 2015. – 192 с, Книш А. Мусулмон тасаввуфи. – Т.: Фан зиёси, 2022. – 448 б.

<sup>4</sup> Бартольд В.В. Культура мусулманство. Сочинения в 9 томах. Том VI. – М.: Наука, 1998. – 112 с; Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М.: Наука, 1965. – 531 с; Болдырев А. Н. Ещё раз к вопросу о Ходжа-Ахраре. (Духовенство и политическая жизнь на Ближнем и Среднем Востоке в период феодализма.) – М.: Наука, ГРВЛ, 1985. – 63 с; Гордлевский В.А. Бахауддин Накшбанд Бухарский. Изб.соч. Т.3. – М.: 1962; Петрушевский И.П. Ислам в Иране в VII—XV веках (курс лекций) / Отв. редактор В. И. Беляев. – Л.: Издательство Ленинградского университета, 1966. – 400 с; Тагиржанов А.Т. Описание таджикских и персидских рукописей. – М.: Изд-во Ленинградского университета, 1962. – 566 с.

M.T.Stepanyans, A.Tamimdari, E.A.Frolova va boshqalar<sup>1</sup> izlanishlar olib borishgan.

O‘zbekistonda tasavvuf ilmining ko‘plab jihatlarini, uning fanlararo metodologiyasi bilan bog‘liq ilmiy-falsafiy muammolari keng o‘rganilgan. O‘zbek olimlaridan I.Mo‘minov, M.Xayrullayev kabi faylasuflar<sup>2</sup>, N.Komilov, I.Haqqul, B.Valixo‘jayev<sup>3</sup> singari adabiyotshunoslar, E.Karimov, K.Kattayev<sup>4</sup> kabi tarixchi olimlar, R.Shodiyev, G.Navro‘zova, G.Mahmudova, O.Sharipova, Sh.Madayeva, S.Karimov<sup>5</sup>, shuningdek, A.Samadov, J.Xolmo‘minov, K.Rahimov, O.O‘roqova, Sh.Agzamxodjayeva, M.Norova, L.Karimova, D.Jumaniyozova<sup>6</sup> kabi faylasuf olimlar tasavvuf ta‘limotining ma‘naviy, insonparvarlik, badiiy-estetik, falsafiy va diniy mohiyati, romantizmi, tizimli jihatlariga atroflicha e‘tibor qaratgan.

Ilmiy manbalar tasnifi va talqini shuni ko‘rsatadiki, olimlar va turli soha mutaxassislari, bir tomondan, tasavvufning badiiy xususiyatlari va yo‘nalishlarini, ikkinchi tomondan, tasavvufning diniy-falsafiy asarlarini mufassal tadqiq etganlar. Biroq, bu asarlarda tasavvufda keng qamrovli bo‘lgan konsepsiya – go‘zallik paradigmasini yaxlit tizim sifatida o‘rganish, go‘zallik kategoriyasining diniy va dunyoviy jihatlarini qiyosiy tadqiq etish maqsad qilinmagan. Qayd etilgan tasniflardan kelib chiqib, mazkur tomonlarni hisobga olgan holda tasavvuf

---

<sup>1</sup> Степанянц М.Т. Философское наследие суфизма в современном мире / Философское наследие народов Востока и современность. – М.: 1983; Тамимдари А. История персидской литературы. – Санкт Петербург.: Петербургское Востоковедение, 2007; Фролова Е.А. Дискурс арабской философии/Отв.ред. А.В. Смирнов. М.: ООО «Садра»: Языки славянской культуры, 2016. – 312 с.

<sup>2</sup> Мўминов И. Танланган асарлар. 1-том. – Т.: 1969. – 34 б; Хайруллаев М.М. Абу Наср Аль Фараби. – М.: Наука, 1982. – 302 б., Хайруллаев М. Фараби: эпоха и учение. – Т.: 1975.

<sup>3</sup> Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Movarounnahr, O‘zbekiston, 2009. – 140 б. Комил инсон ҳақида тўрт рисола. Фортожик тилидан Н.Комилов таржимаси. – Т.: Ма‘naviyat, 1997. – 280 б., Комилов Н. Нақшбандия /O‘zME, 6. – Т.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2003. – 294 б. Ҳаққул И. Шайх Акбар // Tafakkur. – Toshkent, 2000 – № 1. – В.93; Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърят. – Т.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1991. – 31 б; Валихўжаев Б. Хожа Ахрор тарихи. – Т.: Yozuvchi, 1994. – 96 б; Валихўжаев Б, Ўринбоев Б. Худододи Вали. – С.: СамКИ, 1995. – 39 б.

<sup>4</sup> Каримов Э. Хўжа Ахрор ҳаёти ва фаолияти. – Т.: Маънавият, 2003. – 45 б; Каттаев К. Тасаввуф алломалари. – Т.: Фафур Фулом НМИУ, 2017. – 320 б; Каттаев К. Маҳдуми Аъзам тарихи ва мукамал Даҳбедийлар сулоласи. – Т.: Mashhur-press, 2016. – 192 б.

<sup>5</sup> Шодиев Р.Т., Бахриева Д.Х. Суфизм в духовной жизни народов Мавераннахра (IX-XI вв.). – С.: 2018. – 168 с; Наврўзова Г. Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси. – Т.: Фан, 2005. – 232 б; Наврўзова Г. Баҳоуддин Нақшбанд (рисола) / Лойиҳа муаллифи Қ.К.Ражабов. – Т.: ABU MATBUOT-KONSALT, 2011. – 24 б. (Тарих ва тақдир); Наврўзова Г.Н. Нақшбандия – камолот йўли. – Т.: Фан, 2007. – 189 б; Наврўзова Г.Н. Баҳоуддин Нақшбанд таълимотининг ёшлар тарбиясидаги аҳамияти. – Б.: Бухоро, 2008. – 40 б; Mahmudova G. Avestoning falsafiy mohiyati. – Т.: Noshir, 2015. – 279 б; Маҳмудова Г. И.М.Мўминов ва ўзбек фалсафа тарихининг умумметодологик муаммолари// Ўзбекистонда фалсафа тарихи мактаби ва учинчи Ренессанс: Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2023. – Б.30-34., Karimov S. Tasavvuf va futuvvat: umumiylik va xususiylik // Imom Vuxoriy saboqlari. – Samarqand, 2019/1. – В.13.

<sup>6</sup> Самадов А. Шахс ахлокий-эстетик идеалининг синкретик хусусияти. Монография. – Т.: Innovatsion rivojlanish, 2019. – 115 б; Холмўминов Ж.М. Ваҳдат ул-вужуд фалсафаси ва унинг Нақшбандия таълимотига таъсири. (Ибн-ал-Арабий, Муҳаммад Порсо ва Абдурахмон Жомий қарашлари асосида). Фалс. фан. док. (DSc) ...дис. автореф. – Toshkent: 2020. – В.59. Раҳимов К. Мовароуннаҳр тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII – XI асрлар). Монография. – Т.: Akademnashr, 2020. – 400 б; Ўракова О.Ж. Шарқ романтизмининг эстетикаси: тадрижий таҳлил ва замонавий ёндашувлар иерархиясининг фалсафий асослари. Фалс. фан. док (DSc) ... дис. автореф. – Самарқанд: 2022; Agzamxodjayeva Sh. Alisher Navoiyning tasavvufiy qarashlarida inson muammosi konsepsiyasi. Fals. fan. doktori (DSc) ...dis. aftoref. – Toshkent: 2023; Норова М.Ф. Сайфиддин Бохарзийнинг тасаввуф тарихидаги ўрни. Фалс. доктори (PhD) ... дис. автореф. – Бухоро: 2020; Каримова Л. М. Абдурахмон Жомий таълимотида инсон камолоти ҳақидаги ғоялар ва уларнинг ёшлар тарбиясидаги аҳамияти. Фалс. фан. бўй. фал. доктори (PhD) ... дис. автореф. – Навоий: 2021; Жуманиёзова Д. Бобур ва тасаввуф. – Т.: Янги аср авлоди, 2003. – 82 б.

falsafasida go‘zallik kategoriyasining tizimli va immanent jihatlarini tadqiqot obyektini qilib olindi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq CY-01-son “O‘zbekistonda ijtimoiy-ma‘naviy muhit barqarorligini ta‘minlashning falsafiy asoslari” nomli tadqiqot doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** tasavvuf falsafasida go‘zallik paradigmasining immanent va tizimli asoslarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tasavvuf falsafasini o‘rganishning fanlararo metodologik tahlili va Markaziy Osiyoda tasavvuf ta‘limotining ko‘pma‘noli mohiyati, tasavvuf g‘oyalari murakkablashuvda estetik-go‘zallik segmentini tahlil qilish;

tasavvuf falsafasining aksiologik negizida inson go‘zalligining tizimli tahlili, tarixiy-falsafiy ahamiyati, go‘zallik tushunchasining mazmuni va tarkibi, diniy va dunyoviy asoslari, axloqiy va estetik jihatlarini aniqlash;

estetik tafakkur tarixida go‘zallik kategoriyasining paradigmasi fanlararo tadqiqot obyektini bo‘lganligini ochib berish;

tasavvuf falsafasida inson go‘zalligining immanent jihatlarini, antropologik, ontognozeologik mohiyati va tarixiy ahamiyatini tahlil etish;

Abu Homid G‘azzoliy, Alisher Navoiy ijodining diniy-falsafiy negizida go‘zallik kategoriyasining Alloh va inson muloqoti, qayta aloqa kontekstida asoslanganini tadqiq etish;

Yangi O‘zbekiston turizmi istiqbollari ziyoratgohlarning madaniy, ma‘naviy, tarbiyaviy, diniy imkoniyatlarini asoslash, zamonaviy o‘zbek san‘atida tasavvuf mavzusi va islom san‘ati fenomenining mohiyatini tahlil etishdan iborat.

**Tadqiqotning obyektini** go‘zallik kategoriyasining diniy-falsafiy mohiyati tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida tasavvuf falsafasida go‘zallik paradigmasining immanent va tizimli tadqiqotlari belgilangan.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, fanlararo yondashuv, falsafiy komparativistika, tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Markaziy Osiyo Uyg‘onish — Renessans davri xalqlari falsafiy tafakkuri rivojida tasavvuf ilmi allomalarini go‘zallik haqidagi qarashlarining diniy va dunyoviy asoslari uyg‘un ekanligi mantiqiy asoslangan;

tasavvuf falsafasida go‘zallikning substansional mohiyati, dialektik va sinergetik xususiyatlari, ierarxik rivojlanish darajalari falsafaning makon va zamon atributlari vositasida ochib berilgan;

tasavvuf falsafiy ta‘limotida ifodalangan obyektiv va subyektiv go‘zallikning muhabbat, ishq, chiroylilik, latiflik, mukammallik, tartib, poklik, rahm-shafqat, yordam berish kabi immanent mezonlari yoshlar ma‘naviyatini boyitishi, jismoniy va axloqiy kamolotiga konstruktiv ta‘sir ko‘rsatishi dalillangan;

go‘zallikka oid tasavvufiy qarashlarning madaniy-antropologik, ontognozeologik hamda aksiologik aspektlarini ochib berish orqali yangilanayotgan O‘zbekiston yoshlarining ma‘naviy yuksaklikka erishish, adolatli jamiyatni bunyod etish, ijtimoiy davlatni qurish kabi strategik, ustuvor funksiyalarni amalga oshirishdagi imkoniyatlari asoslab berilgan;

tasavvufiy go‘zallikda o‘z ifodasini topgan vatanparvarlik, insonparvarlik, tinchlik, erkinlik, halollik, do‘stlik, ezgulik kabi ma‘rifatni ulug‘lovchi insoniy qadriyatlar ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlashda birlamchi omillar ekanligi tarixiylik va mantiqiylik nuqtayi nazaridan isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

dissertatsiyada tasavvuf ta‘limotining falsafiy mohiyati va uning tuzilishi, taraqqiyot bosqichlari va murakkablashuvi, diniy va dunyoviy jihatlari aniqlangan bo‘lib, bu natijalar ta‘lim va tarbiya muassasalarida falsafaga oid masalalarga doir o‘quv-uslubiy va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirishda nazariy-metodologik asos vazifasini o‘tagan;

tadqiqot natijalaridan ilmiy tadqiqot markazlari, fondlarni o‘rta asrlar sharq tasavvufiy qarashlariga oid yangi ma‘lumotlar bilan boyitishda foydalanilgan;

yangi ilmiy qarashlar va yondashuvlar asosida tasavvufda go‘zallik paradigmalarning tadrijiy tahlili fanlararo ilmiy xulosalar chiqarishga imkon bergan;

mamlakatimizda barcha qatlam vakillari, xususan, yoshlarning bilimi, axloq-odobi, ma‘naviyati, madaniyatini yuksaltirishda ajdodlarimiz ma‘naviy merosining tutgan o‘rni falsafiy jihatdan tadqiq etilgan va ularni chuqurroq o‘rganishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya natijalarining ishonchliligi inson go‘zallik paradigmasi tendensiyasiga doir tarixiy va zamonaviy g‘oya hamda ta‘limotlarga asoslanilgani, “diniy va dunyoviy go‘zallikning uyg‘unligi”ga oid ilmiy-konseptual talqinlarga murojaat etilgani, nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda obyektivlik va tizimlilik tamoyillariga amal qilingani, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilingani va tegishli tashkilotlardan xulosalar olingani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, go‘zallik konsepsiyasi Markaziy Osiyo tasavvuf ta‘limotiga, uning ko‘plab yo‘nalishlari, badiiy adabiyot taraqqiyotiga ta‘sirini ko‘rsatganligi asosli yoritilgan, shuningdek diniy va dunyoviy go‘zallik o‘rtasidagi konseptual aloqadorlikka doir ilmiy-falsafiy ta‘limotlarni yangi g‘oya va ma‘lumotlar bilan boyitishga, mazkur muammoga bag‘ishlangan ilmiy ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, insonning ma‘naviy, axloqiy, madaniy, estetik muammolarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganuvchi fanlarning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirishda ham foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati fanlararo uslubiyatga asoslanganligi, dissertatsiyaning nazariy umumlashma va xulosalaridan qator sohalar (adabiyot, tarix, sotsiologiya, dinshunoslik, san‘atshunoslik, turizm)ning ilmiy fundamental tadqiqotlarida foydalanish mumkin, xususan, oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘yicha yaratiladigan darslik va o‘quv

qo‘llanmalarni tayyorlashda, nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda, ya‘ni falsafa, falsafa tarixi, estetika, axloqshunoslik, inson falsafasi, dinshunoslik, tasavvuf falsafasi kabi fanlardan ma‘ruza matnlari, o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tasavvuf falsafasida go‘zallik paradigmasining immanent va tizimli asoslari mavzusidagi tadqiqotning ilmiy natijalari asosida:

Markaziy Osiyo Uyg‘onish — Renessans davri xalqlari falsafiy tafakkuri rivojida tasavvuf ilmi allomalarining go‘zallik haqidagi qarashlarining diniy va dunyoviy asoslari uyg‘un ekanligi mantiqiy asoslanganligiga doir taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy universitetida 2018-2020-yillarda bajarilgan “O‘zbekistonda islohotlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning konseptual falsafiy metodologiyasi” (Harakatlar strategiyasi asosida) mavzusidagi PZ-20170928696-raqamli amaliy loyihasi nazariy qismini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 17-maydagi 04/11-2972-son ma‘lumotnomasi). Natijada, bugungi kunda mamlakatimizda bo‘layotgan ijobiy o‘zgarishlarni tushunishda, yoshlarning ma‘naviy, axloqiy dunyoqarashi yuksalishida go‘zallik paradigmalarini anglashlariga xizmat qilgan;

tasavvuf falsafasida go‘zallikning substansional mohiyati, dialektik va sinergetik xususiyatlari, ierarxik rivojlanish darajalari falsafaning makon va zamon atributlari vositasida ochib berilganligiga oid nazariy xulosalar va takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan tayyorlangan “O‘rta asr sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy-falsafiy merosi” nomli kitobni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2023-yil 8-maydagi 02/220-son ma‘lumotnomasi). Natijada yosh avlodni ajdodlar ma‘naviy-ilmiy merosiga hurmat ruhida tarbiyalashga, go‘zal insoniy munosabatlar tizimini tartibga solishga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat ko‘nikmalarining shakllanishiga, inson kamolotida muhim ahamiyat kasb etgan go‘zallik paradigmalari to‘g‘risidagi qarashlarning takomillashuviga xizmat qilgan;

tasavvuf falsafiy ta‘limotida ifodalangan obyektiv va subyektiv go‘zallikning muhabbat, ishq, chiroylilik, latiflik, mukammallik, tartib, poklik, rahm-shafqat, yordam berish kabi immanent mezonlari yoshlar ma‘naviyatini boyitishi, jismoniy va axloqiy kamolotiga konstruktiv ta‘sir ko‘rsatishi dalillanganligiga doir nazariy xulosalar va takliflardan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2023-yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlar dasturining VI yo‘nalishida belgilangan “Millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot tadbirlari, aholi o‘rtasida radikalizm illatining oldini olish” haqidagi 26-bandi “Jamiyatda radikallashuv kuchayishining oldini olish, yoshlar ongini buzg‘unchi yot g‘oyalarga qarshi kurashish borasidagi ustuvor vazifalarni belgilash va amalga oshirish” hamda mazkur yo‘nalishning 28-bandi “Aholi, ayniqsa, yoshlar orasida radikal kayfiyatlarni uyg‘otishga, axloqsizlikni yoyishga qaratilgan buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi samarali targ‘ibot ishlarini tashkil etish” mavzularida belgilangan vazifalar ijrosini bajarishda foydalanilgan (Respublika ma‘naviyat va markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma‘naviy

tadqiqotlar institutining 2023-yil 20-iyundagi 234-son ma'lumotnomasi). Natijada, mamlakatimizda radikalizm va ekstremizmga qarshi kurash yo'nalishidagi faoliyatni tashkil etish, yoshlar ongini buzg'unchi yot g'oyalar bilan zaharlashga qaratilgan turli xil harakatlarga qarshi kurashishda, ma'naviy tarbiyani kuchaytirishda ma'naviy-ma'rifiy soha targ'ibotchilari uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qilgan;

go'zallikka oid tasavvufiy qarashlarning madaniy-antropologik, ontognozeologik hamda aksiologik aspektlarini ochib berish orqali yangilanayotgan O'zbekiston yoshlarining ma'naviy yuksaklikka erishish, adolatli jamiyatni bunyod etish, ijtimoiy davlatni qurish kabi strategik, ustuvor funksiyalarni amalga oshirishdagi imkoniyatlari asoslab berilganligiga oid taklif va tavsiyalardan Samarqand viloyati Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasining 2023-yil I yarim yilligiga mo'ljallangan dasturining 53-bandi "Yangi O'zbekiston 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi doirasida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish, turizm va madaniy merosni yanada rivojlantirish bo'yicha belgilangan topshiriqlarni o'z muddatida bajarish choralarini ko'rish" va 25-bandi nomavsumiy oylarda chegirmalar taqdim etgan holda "Ichki turizm oyligi"ni tashkil qilish hamda "Ichki turizm haftaligi", "Ichki turizm kunlari" dasturlarini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi Samarqand viloyati turizm va madaniy meros bosh boshqarmasining 2023-yilda 03-13/4-358-son ma'lumotnomasi). Natijada Samarqandda ichki turizm imkoniyatlari, ayniqsa, aholi va sayyohlarning tarixiy qadamjolar, ziyoratgohlarga bo'lgan qiziqishlarining yanada ortishiga xizmat qilgan;

tasavvufiy go'zallikda ifodasini topgan vatanparvarlik, insonparvarlik, tinchlik, erkinlik, halollik, do'stlik, ezgulik, ma'rifatni ulug'lovchi insoniy qadriyatlar ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashda birlamchi omillar ekanligi tarixiylik va mantiqiylik nuqtayi nazaridan isbotlanganligiga doir xulosa, taklif va tavsiyalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yilda efirga uzatilgan "Kun mavzusi" nomli eshittirishning ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 6-apreldagi 01-07/112-son ma'lumotnomasi). Natijada tinglovchilarning tasavvuf falsafiy merosi, tasavvuf ilmi allomalarining go'zallik, inson go'zalligi haqidagi qarashlarining boyishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha 13 ta ilmiy anjuman, jumladan, 8 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida o'qilgan ma'ruzalar muhokama qilinib, sinovdan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 35 ta ish chop etilgan bo'lib, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi OAKning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 20 ta maqola (15 ta respublika, 5 ta xorijiy jurnalda) chop qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 4 bob, 11 paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 230 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ishning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi asoslangan.

Dissertatsiya ishining **“Tasavvuf allomalari diniy-falsafiy merosini o'rganishning fanlararo metodologik ko'lami”** deb nomlangan birinchi bobida tasavvuf falsafasini o'rganishning fanlararo metodologik tahlili, tasavvuf falsafasining ko'pma'noli mohiyati hamda tarixiy-falsafiy ahamiyati, Markaziy Osiyoda tasavvufiy tafakkur rivoji va uning murakkablashuvida estetik-go'zallik segmenti masalalari tahlil etilgan.

Mamlakatimizda adabiyotshunos, tarixchi, faylasuf va dinshunos olimlarning tasavvuf ta'limoti bo'yicha olib borayotgan ilmiy izlanishlari diqqatga sazovordir. Tasavvuf tariqatlari mazmunan xilma-xilligi, eklektizmi bilan bir necha asrlar davomida o'zining g'oyaviy birligini saqlab, asosiy maqsadlarida birlashadilar, ya'ni haqiqati mutlaqqa erishish (diniy ishq, muhabbat), ma'rifatga ega bo'lish (bilim, ustoz-shogird, maktab), diniy va dunyoviy go'zallik (Alloh go'zalligi, inson go'zalligi) masalalarida ular yakdil bo'lishgan.

G'arb va Sharq olimlarining tasavvuf (so'fizm) ta'limoti haqidagi tadqiqotlari ikki asosga tayanadi, birinchisi, tasavvufning nazariy metodologiyasi asoslangan diniy-falsafiy asarlar, ikkinchisi, tasavvuf g'oyalari asosida yaratilgan badiiy-estetik asarlar. Tadqiqotda tasavvufiy qarashlarning diniy va dunyoviy asoslarida go'zallik tushunchasining uyg'unlikda, konseptual mohiyatga ega ekanligiga e'tibor qaratilgan. Hozirgi zamon ilmiy tadqiqot ishlarida tasavvufiy go'zallikni asoslovchi qoidalar, nazariya va g'oyalar yetarlicha o'rganilmagan.

Tasavvuf falsafasi Markaziy Osiyoda o'rta asrlar davrida shakllangan, islom dini va ta'limoti, hadislar bilan oziqlanib, o'ziga xos bo'lgan metodologik paradigma<sup>1</sup> yaratgan. Mazkur jihatlar tasavvufda aytilgan go'zallik tushunchasiga ham taalluqli bo'lib, go'zallik kategoriyasi mega tushunchalardan biri sifatida, har bir tasavvufiy qarashlar, maktab va tariqatlarda o'z mohiyatiga ega bo'lib borgan. Tasavvuf falsafasining umummetodologik ko'lami shu qadar keng bo'lib, u proza va poeziyada, adabiyotda, diniy ta'limot bilan bog'liq izlanishlarda namoyon bo'lib, sermazmun mohiyati, ko'pvariantli jihatlari bilan ajralib turadi. Tasavvuf ta'limoti fanlararo kesimda din va shariat, ilm va ma'rifat, odob va axloq kabi ko'pma'noli metodologiyasi bilan ajralib turadi. Tasavvuf ta'limoti murakkab, nochiziqli xususiyatlarga ega bo'lib, tasavvufiy dunyoqarashning ikki yoki ko'pma'noli jihatlari, tariqatlarning ko'ptarmoqli, strukturaviy va tizimli xususiyatlari to'g'risida chuqurroq bilim beradi. Tasavvuf ta'limoti ham o'z-o'zini tashkillashtiruvchi bir butun tizim sifatida, beqarorlikdan barqarorlikka o'tish, tartib parametrlarining yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi.

---

<sup>1</sup> Paradigma (T.Kun) – ma'lum zamon mobaynida ilmiy hamjamiyatga muammolarni qo'yish va yechish andozasini beruvchi keng e'tirof etilgan ilmiy yutuqlar tushuniladi.

Bir qarashda murakkab, chigal ta'limot sifatida ta'riflanadigan tasavvuf ilmi o'z davrining murakkab muammolari ustida tajribaviy-amaliy ilmiy izlanishlarni davom ettirib, o'zlari uchun maqbul deb bilgan tariqatni tanlash imkoniyatini beradi. J.S.Trimingem fikricha, so'fiylik yo'li buddizm, iudaizm, hinduizm, xristianlik dinlarida ham mavjud. Musulmonlarda tasavvuf yo'li axloqiy poklanish ("ma'naviy jihod" – mujohad) va insoniy takomillashuv g'oyasiga asoslangan. Mazkur g'oya axloqiy fazilatlar nazariyasi (maqomat) va qisqa holatda spontan, qo'qqisdan paydo bo'ladigan, miltillab turuvchi yorug'likning birdan chaqnashi (xol) kabi mulohazalarida aks etadi<sup>1</sup>.

Falsafa va falsafiy fanlar tizimida tasavvuf ta'limotining birmuncha murakkab va chuqurroq mohiyati, ya'ni axloqiy, estetik, diniy (ilohiy) va so'fiy mazmuni, falsafiy xarakteri (dualizmi, plyuralizmi, gumanizmi) o'rganiladi. Tasavvuf falsafasida ishq, sevgi, komillik, dil, do'stlik, oyna, suhbat va boshqa ko'plab tushunchalar ko'pma'nolidir. E.Karimov "Xoja Ubaydulloh Ahror. Risolayi Volidiyya" kitobida insonga ta'sir ko'rsatuvchi har bir holatni o'rganar ekan, shunday deydi: "...sohibjamol kishining oynani do'st tutishi oyna bo'lgani uchun emas, balki unda o'zini mushohada qilgani uchundir. Demak, aslida u o'zini do'st tutganidir"<sup>2</sup>, — bu o'z-o'ziga tanqididir. Tasavvuf manbalari "mualliflari - deydi E. Karimov, o'rta asr o'quvchisi ongiga kuchli ta'sir ko'rsatish maqsadida real va mistik voqealarni qorishtirilgan holdagi badiiy uslublarga maxsus murojaat qilgan bo'lsalar ham, ajab emas"<sup>3</sup>. Darhaqiqat, tasavvufiy ijodkorlar san'at effektini juda yaxshi anglagan holda so'z san'ati, badiiy adabiyotdan mohirona foydalangan.

Tasavvuf falsafasi, tom ma'noda, insoniy go'zallik falsafasi, diniy antropologiyadir, uning asosiy darajalarida inson va insoniylik, odam va odamiylik uyg'unligidagi go'zallik majmui turadi. Shu tarzda ular dastlab "Alloh go'zal"dir diniy konsepsiyasini, keyingi navbatda, insoniy go'zallik paradigmalari tizimini ishlab chiqqanlar, go'zal estetik ko'rinish, go'zal axloqiy sifatlar, go'zal ma'naviyat, go'zal hayot, go'zal sevgi, go'zal muhabbat, go'zal muomala, go'zal nutq, go'zal bilim, go'zal jamiyat, go'zal ustoz, go'zal olam, go'zal hodisa va boshqa go'zal omillar to'g'risida fikr yuritganlar. Shimmel tadqiqotlarida go'zallik simvolini "ikkilik" tushunchasi bilan bog'lab tushuntiradi, ya'ni dunyoning ikkiga ajralgani (real dunyo va narigi dunyo, yaxshilik va yomonlik, erkak va ayol, tug'ilish va o'lim, suv va olov, kunduz va tun, faollik va passivlik) hayotning qutbliligini bildiradi, deb aytadi. Ijod bilan bog'liq paydo bo'ladigan "ikkilik"ning go'zal timsoli Jaloliddin Rumiy tomonidan ixtiro qilingan, buni "ip o'rami" (ikki ildiz: johillik va donishmandlik) tushunchasi misolida izohlab beradi<sup>4</sup>.

Tasavvuf allomalari ijodida estetika, badiiy tajriba din va tasavvuf, hayot va falsafa, nazariya va amaliyotni mahorat bilan birlashtirgan. Tasavvufning falsafiy mohiyatida estetik jihatlar unda umumbashariy estetik segmentning mavjudligini bildiradi. Tasavvuf allomalari asarlaridagi diniy va tasavvufiy qarashlar, real hayotning badiiy voqelikka asoslanishi yaxlit estetik tizim ishlab chiqilganini

<sup>1</sup> Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе. – М.: Рипол классик, 1989. – 232 с.

<sup>2</sup> Каримов Э. "Хожа Убайдуллох Ахрор. Рисолаи Волидийя". – Т.: Янги аср авлоди. 2004. – 11 б.

<sup>3</sup> O'sha manba. – 12 б.

<sup>4</sup> Schimmel A. The Mystery of Numbers. New York. Oxford, Oxford University Press, 1993. – 50 p.

namoyon qiladi. Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Forobiy, Ibn Sino, Umar Xayyom, G‘azzoliy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy o‘z asarlarida estetik tamoyillarning tasavvufiy dunyoqarash tizimidagi o‘rnini aniqlashtirib bergan:

1. Diniy sohadagi go‘zallik, Allohni sevish, unga bo‘lgan muhabbat, ishqni ta’riflovchi ilohiy go‘zallikdir. Tasavvufda ilohiy go‘zallikni ko‘rishga muvaffaq bo‘lish uchun murakkab yo‘lni bosib o‘tish mexanizmi ishlab chiqilgan (imon talablari, tariqat yo‘li).

2. Dunyoviy sohadagi go‘zallik, borliq, inson, tabiat, jamiyat va boshqa narsa-hodisalardagi go‘zallik (obyektiv va subyektiv go‘zallik). Uzoq yillar davomida tasavvuf ta’limoti diniy va dunyoviylik uyg‘unligida yuksalib kelgan. Ayniqsa, estetikasi tufayli amaliy hayot sohasiga chuqur singib borgan.

Islom ta’limoti asosida shakllangan tasavvuf tariqatlarida go‘zallik, go‘zallikni sevish to‘g‘risida ko‘p bora ta’kidlansa-da, biroq islom falsafasi kamdan-kam hollarda go‘zallik bilan bog‘lanadi. Shu sababli ayrim olimlar islomdagi unutilgan go‘zallik tarixini so‘fiy asarlar orqali aniqlash kerakligini ta’kidlaydi. Shu xususida Kazuyo Murato “So‘fiylikdagi go‘zallik: Ruzbixon Bahliy ta’limoti” asarida insonning go‘zallikka intilishi musulmonlar hayotining maqsadi ekanligini aytadi. Inson Xudoga taqlid qilib, komil bo‘lishi va Xudoning go‘zal suratida yaratilgan tug‘ma insoniy tabiatini tiklashi kerak. Qur‘on, hadislar va tasavvuf allomalarining asarlaridagi go‘zallikka oid asosiy atamalarni chuqur tahlil qilish lozim. Ilohiy, kosmik va insoniy go‘zallikni, payg‘ambarlar, xususan, Odam Ato, Ibrohim, Yusuf, Muso va Muhammad alayhissalomning go‘zalligini o‘rganishni ta’kidlaydi. So‘fiylarning go‘zallik nazariyasi, asosan, fors va arab tillaridagi chalkash uslubi va ekssyentrik terminologiyasi tufayli kam o‘rganilganini qayd etadi<sup>1</sup>.

Go‘zallik tasavvufda uch bosqichlidir, birinchisi, mutlaq, o‘zgarmas, ilohiy go‘zallik, ikkinchisi, moddiy dunyo narsa va hodisalarining go‘zalligi, uchinchidan, inson harakati bilan bog‘liq ruhiy, ko‘rinmas go‘zallik<sup>2</sup>. Barcha tasavvuf vakillari (Inb al-Arabiy, Attor, G‘azzoliy, Rumi) qarashlariga ko‘ra, mazkur dunyoda ko‘rinadigan hamma narsaning go‘zalligi ilohiy go‘zallikka mos keladi. Moddiy olamdagi ko‘pxillik, rang-baranglik ilohiy zarraning ifodasidir, jumladan, inson go‘zalligini ilohiy voqelik bilan bog‘lashgan, she‘r, g‘azal, doston va hikmatlarda insonni tabiat, borliq, olam bilan bog‘lab ma’naviy kamolotini ulug‘lagan, balki yuksak saviya g‘oyasini ham munosib tarzda yetkazgan.

Tarixiy shakllangan tasavvuf merosi tahlillari shuni ko‘rsatadiki, ularda insonning ichki va tashqi go‘zalligi muammosiga, ayniqsa, uning “men”i, o‘z “men”i ustidan g‘alaba qilishining uslubiy asoslarini yaratish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, boshqarish, tashkillashtirishning amaliy jihatlariga e’tibor qaratilgan bo‘lib, “Xunuk inson go‘zal bo‘lishi mumkinmi?”, “Go‘zal inson aslida xunuk bo‘lishi mumkinmi?” kabi masalalarga yechim izlangan. Ma’naviyatni yuksaltirish, insonning komillikka erishuvi masalalari tasavvufning asosiy antropologik

<sup>1</sup> Казуё Мурато. Красота в суфизме: Учение Разбихана Бакли. SUNY Press; Репринтное издание, 2017.–223 с.

<sup>2</sup> Фаридууддин Аттотр. Мантиқ ут-тайр. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006. – 63-64 б.

muammolari hisoblangan. Masalan, birgina sevgi muammosi yechimini soʻfiylar quyidagicha talqin etadilar:

“Sevilgan” kishi goʻzaldir. Aksincha boʻlmaydi. Yaʼni hamma goʻzallar sevilavermaydi va sevilishi shart ham emas. Goʻzallik sevimlilikning bir juzʼidir. Sevimli boʻlmoq asldir. Bu boʻlgandan keyin goʻzallik ham mavjuddir. Bunaqa “sevish yoʻli”ni yoki “sevgini shakllantirish” mexanizmini ishlab chiqqan Xoja Ahror Vali fikricha, muhib (sevuvchi) va mahbub (sevilgan)ning har ikkovi haqiqiy Vahdat rangida zohir boʻladi. Tasavvuf estetikasida goʻzallik, estetik munosabat, estetik orzu muhabbat va ishq mavzusi bilan ham boyiydi.

Tasavvufiy manbalar, hadislar tahlillariga koʻra, bunday estetik qarashlar xalqning goʻzal axloqiy fazilatlarini mustahkamlash va shakllantirishda samarali vosita boʻlib, islom dinining madaniy qadriyatlarini mustahkamlagan. Mazkur mazmundagi asarlar azob chekayotgan qalblarga taskin, maʼnaviy ozuqa beradi, ular tufayli jamiyatda sevgi-muhabbat, rahm-shafqat, tinchlik va totuvlik mustahkamlanadi. Xalq tasavvuf estetikasining zavqli taassurotlari taʼsirida yomon, gunoh, nopok ishlardan oʻzini tiyib, toʻgʻri fikrlab, toʻgʻri xatti-harakatli boʻlishga intiladi.

Dissertatsiyaning **“Estetik tafakkur tarixida goʻzallik kategoriyasi: paradigmatal transformatsiyasi, immanent jihatlari, tizimli tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida estetik tafakkur tarixida goʻzallik kategoriyasining paradigmatal transformatsiyasi; Tasavvuf falsafasida goʻzallikning substansional mohiyati makon va zamon atributlari kesimida va Tasavvuf falsafasining aksiologik negizida inson goʻzalligining tizimli tahlili muammolari yoritilgan.

Falsafiy tafakkur taraqqiyotida diniy va dunyoviy goʻzallik qurama holatda aks etib, turli aspektlarda oʻzini namoyon qiladi. Diniy va dunyoviylik tushunchalari bir tomondan, bir-birini toʻldirib, qorishiq holatda namoyon boʻlgan boʻlsa, ikkinchi tomondan, ular bir-biridan mazmunan keskin farqlanadi. Diniy dunyoqarashda ilohiylik, diniy substansiyaning goʻzalligi madh etilsa, dunyoviy goʻzallik moddiylik bilan bogʻlanadi.

Estetik tafakkur tarixida goʻzallik kategoriyasi insoniyat tarixining voqelikka boʻlgan munosabatining eng dolzarb va munozarali obykti hisoblanadi. Qadimgi asotir tafakkuridan, tizimlashgan diniy va tarixan shakllangan ilmiy taʼlimotlarda estetikaning goʻzallik kategoriyasi avval sinkretik tarzda, keyinchalik qurama holatda aks etib, insonlar tomonidan turli aspektlarda idrok etilgan. Goʻzallik tushunchasi tarixda barcha sohalarga, yaʼni insoniyat taraqqiyotining ilk davrlaridan boshlab jamiki madaniy sohalarga, jumladan, din va sanʼat, til va yashash tarziga sekin singib borgan. “Goʻzallik nafaqat tushuncha yoki narsalarning tabiiy belgisi, balki hissiy va mantiqiy birlikning ifodasidir, insonning voqelikda oʻzini namoyon etadigan mutlaq gʻoyani maʼnaviy egallashi natijasidir”<sup>1</sup>.

Goʻzallik kategoriyasi paradigmatal oʻzgaruvchan hodisa sifatida ijtimoiy ong tizimining diniy va ilmiy parametrlarida funksional jihatdan bir-birini toʻldirib, baʼzida yaxlit holatda namoyon boʻlgan boʻlsa, ikkinchi tomondan, ular bir-biridan mazmunan keskin farqlangan. Diniy dunyoqarashda ilohiylik, diniy substansiyaning

---

<sup>1</sup> Махмудова Г. va boshqalar. Ўзбекистонда ислохотлар жараёнини таҳлил этиш ва амалга оширишнинг концептуал-фалсафий методологияси. – Т.: Noshir, 2020. – 96-97 б.

go‘zalligi madh etilsa, ilmiy tushuncha sifatida go‘zallik mohiyatan ko‘pqirrali tushuncha sifatida tahlil qilingan.

Didro fikriga ko‘ra: “Go‘zallikning tashkil topishidek murakkab masala yuzasidan mulohaza bildirishdan avval bu mavzu bo‘yicha bosh qotirgan ko‘plab mualliflar qatori shuni qayd etishim kerakki, qandaydir mash‘um tasodifiyat tufayli odamlar o‘zlari yaxshi tushunib yetmaydigan narsalar haqida ko‘p gapiradilar, ana shunday masalalardan biri go‘zallikdir. ...Daf‘atan aksariyat odamlar go‘zallikning mavjudligiga iqrор bo‘lishadi, ko‘pchilik uni his etadi, lekin juda ham sanoqli shaxslar uning nimaligini bilishadi”<sup>1</sup>.

Estetika tafakkur tarixida (antik davrdan hozirgi davrgacha) ko‘pma‘noli go‘zallik kategoriyasining beshta paradigmasi vujudga kelgan, shundan birinchi paradigmaga ko‘ra, “go‘zallik” — bu Xudoning go‘zalligi, uning jamoli yoki aniq narsa-hodisalardagi mutlaq g‘oyaviy go‘zallik (Platon, Tertullian, Foma Akvenskiy, Gegel)dir. Rus estetik olimi Y. Borev tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy yo‘nalishga binoan go‘zallik tabiiy xususiyatlarga ega bo‘lgan obyektiv hodisa bo‘lib, inson ehtiyojiga binoan ijtimoiy ishlab chiqarish tajribasiga jalb etilgan va insoniyat uchun ijobiy ahamiyatga molik erkin ma‘naviy jarayon ifodasidir<sup>2</sup>. Mazkur birinchi paradigmada ko‘rsatilgan ko‘p sonli go‘zallik tushunchalari majmui yagona Xudoning go‘zalligini e‘tirof etishida umumiylikka ega. Tasavvuf ta‘limotida aynan mana shu paradigma ko‘proq ustunlikka ega, chunki asosiy sabab, tasavvuf ilmida voqelik, olam, jamiyat, tabiat, insonlar hammasi Alloh tomonidan yaratilgan. Narsa va hodisalar, tirik, notirik tabiat va boshqalar diniy nuqtayi nazardan go‘zal deb tasvirlanadi.

Estetik hodisalar zavqiy jihatlariga bog‘liq bo‘lsa-da, ammo estetika go‘zallikni nazariy va g‘oyaviy, paradigmalar jihatdan o‘rganadi. Yuqorida qayd etilgan fikrlarga yondashilsa, tasavvuf ta‘limotida ham diniy go‘zallik ilohiylik bilan uzviy bog‘liq jarayon ekanligi, dunyoviy go‘zallik esa hissiyotlarga suyangan, ko‘rish, eshitish orqali insonda zavq-shavq uyg‘otadigan, jonli va jonsiz narsa va predmetlar, voqea-hodisalar, insonning go‘zal kechinmalari qamrovini tashkil etadigan voqelik sifatida idrok etiladi.

Tasavvuf g‘oyalaridagi go‘zallik kategoriyasi estetik go‘zallikdan kengroq, multiparadigmalar xususiyatga ega. A. Kurbonmamadov aytganidek: “Paradigmalar nafaqat nazariyani, balki butun fanning rivojlanish tendensiyasini ham belgilaydi. Har qanday fan ko‘p paradigmali. Paradigmalar nafaqat nazariyani, balki o‘zaro bog‘langan va bir-birini to‘ldiruvchi bir qancha ilmiy g‘oyalarni ham qamrab oladi. Ular haqiqiy va xayoliy, real va mifologik tarzda bo‘lishi mumkin<sup>3</sup>.

Tasavvufda go‘zal, chiroyli, latofatli, nafis, ko‘rkam, jozibador, maftunkor, xushro‘y tushunchalari insonlarni o‘ziga jalb qilgan, kuchli attraktorlik xususiyatiga ega bo‘lgan, estetik zavq bergan hamma narsaga nisbatan qo‘llaniladigan kategoriya sifatida qo‘llaniladi. Go‘zallik sifatlari tug‘yoniylik, maftunkorlik, foydalilik, mo‘jizaviylik singari tushunchalar orqali izohlanadi. Go‘zallikning xususiyatlari

<sup>1</sup> История эстетики. Памятники мировой эстетической мысли. – М.: Т.П. Искусство, 1964. – 308 с.

<sup>2</sup> Боров Ю. Эстетика. М. Политиздат, 1988. – 38-57 б.

<sup>3</sup> Историко-культурные традиции эпохи Хакима Термизи и ее значение в мировой цивилизации (на рус., англ. яз.). – Д.: Дониш, 2016. – 105 с.

qulaylik, manfaatdorlik, yoqimlilik, chiroylilik tushunchalari bilan belgilanadi. Unsurlar, sifatlari va xususiyatlar uyg'un bo'lgan narsa-hodisalargina chinakam go'zallikni aks ettiradi. Chiroyli narsaning sifati bizning manfaatimiz uchun hamohang bo'lmasa yoki maqsadlarimizga mos kelmasa, u har qancha maftunkor bo'lmasin, go'zallik sifatida baholanmaydi.

Tasavvuf falsafasiga ko'ra, to'rtta moddiy unurning har biridan insondagi to'rt xususiyat, to'rt holat, to'rt mayl va to'rt sifat yuzaga keltirilgan bo'lib, insondagi tuproqdan paydo bo'lgan xususiyatlar – sabr, umid (Xudoning marhamatiga), ezgu xulq va muruvvatdir. Insonda suvdan – quvonch, saxovat, nazokat, birlik, shamoldan yolg'on, ikkiyuzlamachilik, sabrsizlik, tantiqlik, olovdan – nafs, kibr, tama, hasad paydo bo'lgan deb hisoblanadi. Tasavvufga ko'ra, tuproq Allohning munavvar nuri, suv – uning yorug' hayoti, havo – buyukligi, olov – uning g'azabining timsoli sifatida e'tirof etiladi. Islomda estetik nuqtai nazar go'zallikka oshno bo'lishdir. Alloh go'zal ekan, u yaratgan odam ham, u bunyod qilgan olam ham, bandalarga hadya etgan noz-ne'matlari ham go'zaldir.

Go'zallik va nafosatning ko'plab ta'riflari mavjud bo'lib, bu tajriba, hissiyot, zavqlanish hissi (P.V. Simonov), kognitiv qobiliyatlar o'yini (I. Kant)<sup>1</sup>, maqsadga muvofiq va murakkablikni yengish usuli (V.M.Volkenshtein), qiyinchiliklarni yengish hodisasi (B. Brext), kompleksning soddalikka qisqarishi (V.Geyzenberg), har qanday manfaatdan holi zavq (I. Kant)<sup>2</sup>, yagona uzluksiz tasvir (Gestalt)<sup>3</sup> mulohazalaridir. Antik davrdan buyon transformatsiyaga uchragan “Estetiklik va axloqiylik o'rtasidagi farqlanmaslik holati” (Dorofeyev, D. 2018)<sup>4</sup>, axloqiy-estetik sinkretiklik (Samadov, A. 2019.)<sup>5</sup> xususiyatlariga egaligiga qaramay, axloqiylik va estetiklik “bir xil munosabatlarning ikkita ajralmas tomonini ifodalaydi” deb aytishimiz mumkin. Aynan tasavvuf falsafasida go'zallikning substansional mohiyatining makon va zamon atributlari yunon faylasuflarining kalokagatiya<sup>6</sup>– tushunchasi kesimida chuqur ma'no va mazmun kasb etadi.

T.Mahmudov go'zallikka oid fikrlarida “Go'zallikning onasi tabiatdir... Tabiatning tabiiy go'zalligi boshqa. Tabiiy go'zallikning andozasi va qonun – qoidasini topish va yaratish qanchalik mushkul bo'lsa, san'at go'zalligining andozasi va qonuniyatini topish shunchalik qiyin. Tabiiy go'zallik ichki va tashqi omillarning million karra turlanishi natijasi bo'lsa, san'at go'zalligi obyektiv va subyektiv omillarning turlanishi va nurlanishi natijasidir”, deydi<sup>7</sup>.

Go'zallik tabiatda ham, insonda ham, jamiyatda ham mavjud bo'lib, olim ta'kidlaganidek, go'zallik xilma-xil variantlarda turlanib, nurlanib namoyon bo'ladi.

<sup>1</sup> Кант И. Критика способности суждения. – М.: Искусство, 1994. – 367 с.

<sup>2</sup> Симонов П.В. Предисловие к русскому изданию // Красота и мозг. Биологические аспекты эстетики. – М.: Мир, 1995. – 335 с.

<sup>3</sup> Пауль Г. Философские теории прекрасного и научное исследование мозга // Красота и мозг. Биологические аспекты эстетики. – М.: Мир, 1995. – 335 с.

<sup>4</sup> Дорофеев Д.Ю. Эстетика образа и этика жизни античного философа // Вопросы философии. – Москва. 2018. № 6. – С.202-208.

<sup>5</sup> Samadov A. Shaxs axloqiy-estetik idealining sinkretik xususiyati. Monografiya. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2019. – 115 с.

<sup>6</sup> Kalokagatiya – (tarjima qilib bo'lmaydigan antik estetikaning atamasi. Ikki so'z: “kalos” – go'zal, chiroyli va “agatos” – oliyjanob, yumshoq, muloyim )

<sup>7</sup> Махмудов Т. Хаётий сабоқлар. – Т.: Mumtoz so'z, 2006. – 144 б.

Zero, tasavvuf ta'limoti Alloh borliqni o'z jamoli va kamolini namoyish qilish uchun yaratgan ko'zgusidir deyiladi. Bu ko'zgu esa biz ko'rib turgan moddiy olam hisoblanadi. Biroq bu ko'zguning javhari inson qalbi bo'lib, Alloh inson qalbida o'zini ko'radi.

So'fiy adabiyotida go'zallik va go'zallikni tarannum etuvchi, go'zallikni izohlovchi tushunchalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, inson go'zalligi (axloqiyligi, estetikligi) masalasiga alohida qaralib, go'zallikka eltuvchi funksional vazifalar bilan belgilanadi. "Islom nazarida shariat hukmlariga ichki va tashqi tarafdin to'la ergashgan kishining hayoti go'zal bo'ladi. Yuzaki amali yaxshi bo'lib, ichki olami buzuq bo'lgan kishi ruhidan ajralgan jasad kabidir. Botiniy ma'naviyatlari kamolga yetgan-u, zohiriy amali ko'zda tutilganidek yaxshi bo'lmagan kishi – o'zi yaxshi-yu, lekin yuzi xunuk, ko'zi ko'r, oyog'i oqsoq odam kabidir"<sup>1</sup>, deyilgan.

Tasavvuf falsafasida go'zallik hayot va yashashni, moddiy va ma'naviy madaniyatni qadrlashda aks etadi. Inson go'zalligini ko'rsatib beradigan, yuzaga chiqaradigan go'zallik unsurlari, elementlari va xususiyatlarida aks etadi; go'zallik ijodda, ong va tafakkurda, yaxshi amallarda, insoniy fazilatlarda, adolatda, odo-axloqda, ustoz-shogirdlikda, bilim va ma'rifatda hamda ularni qadrlash, e'zozlashda namoyon bo'ladi. Inson go'zalligi va bu go'zallikka erishish yo'llari asosiy g'oyalardan biri bo'lib, birinchidan, insonning o'zi bir butun yaxlit tizim sifatida go'zallikning namunasi hisoblanadi, ya'ni "surati go'zal qiyofada paydo bo'lgan" (inson), deyiladi. Ikkinchidan, insonning ichki-botiniy olami, unga ruh ato etilgani inson go'zalligining ikkinchi tomonidir, deb belgilangan.

Tasavvuf ta'limotida inson qalbi go'zalligining immanent xususiyatlari, yopiq, germetik shaklda emas, aksincha "Men" va insoniyatning mohiyatini tushunish, ma'naviy fazilatlarini shakllantirish mexanizmlari orqali tasavvufiy yechim, g'oya va nazariyalari qadriyatlarining aksiologik mohiyati bilan muhim metodologik manba vazifasini o'taydi.

Dissertatsiyaning "**Abu Homid G'azzoliy va Alisher Navoiyning tasavvuf falsafasida go'zallik konsepsiyasi**" masalalariga bag'ishlangan uchinchi bobida tasavvufda inson go'zalligining immanent jihatlari, antropologik, ontognoseologik mohiyati va tarixiy ahamiyati; Abu Homid G'azzoliy qarashlarida tasavvufiy go'zallik masalalari va Alisher Navoiy ijodida inson go'zalligi muammosi va tasavvufiy yondashuvidagi buyuk imtiyozi muammolari tahlil etilgan.

Insonning ma'naviy go'zalligi masalasida faylasuflar va tasavvuf ilmi allomalari shaxsning ma'naviy tuzilishidagi to'rtta muhim xususiyatga e'tibor qaratadilar: qalb, nafs, ruh va aql. Inson haqidagi tasavvuf ta'limoti diniy antropologiyaning variantidir, u inson borlig'idagi uch tamoyil – jismoniy, ijtimoiy va ma'naviy birligi haqidagi konsepsiyani ilgari suradi. Tasavvuf mutasavvuflar ijodida to'g'ridan-to'g'ri bilishning ikki turini – intuitiv-tafakkur bilimi (mushohada yoki kashf) va tasavvufiy ilm (tahqiq)ni ajratib ko'rsatish kerak. Ushbu bilim turlari o'rtasidagi farq quyidagicha: umumiy obyektga (dunyo, inson va Xudo) ega bo'lgan

---

<sup>1</sup> Каттаев К. Махдуми Аъзам тарихи ва мукаммал даҳбедийлар тариқати. – Т.: Mashhur press, 2016. – 166 б.

uch xil bilim (ratsional, intuitiv-tafakkur va tasavvufiy) mavjud. Bu uch turdagi bilimlarning barchasi umumiy asosga ega.

Tasavvufda inson yaratilishi jihatidan Allohning yerdagi noibi, “Axsan-i takvim”<sup>1</sup>, ya’ni: “Albatta, shubhasizki, inson (zoti)ni eng chiroyli shaklda yaratdik” ma’nosida qo‘llangan (“Tin” surasi, 4-oyat). Insonning go‘zalligi va mukammalligi siriga ega bo‘lishi uning bu dunyoning mohiyati darajasida bo‘lganligidandir. “Mukammallik”, “xushbichimlik” (axsan-i taqvim) shakl va moddada emas, balki “husn” degan ma’noni anglashdadir.

“So‘ngra uni asfala sofilinga qaytardik” (“Tin” surasi, 5-oyat).

Ushbu fikrga ko‘ra, ruh sifatida eng go‘zal tarzda yaratilgan inson, keyinchalik tana qafasiga joylashtirilib, “Asfala sofilin”<sup>2</sup> deb nomlangan moddiy sohaga tushirilgan. Bu haqda “Keyin (qilmishlari tufayli) uni qabihlarning eng qabih holatiga qaytardik”<sup>3</sup>, deyilgan. (“Tin” surasi, 5-oyat) Islom ta’limotida inson haqida aytilgan ushbu so‘zlar tasavvuf ilmida insonning go‘zal va xunuk jihatlarini asoslovchi muhim atributlar hisoblangan.

Insonning substansiyasi, ma’nosi, tanasi va ruhi bor. Faylasuflar insonni gapiruvchi hayvon (hayvon-i notik), mutasavvuflar esa hayvon-i sevuvchi sifatida ko‘radilar. Muqaddas kitob Qur’onda mutlaq ma’noda insonni doimo zaif va Allohga muhtoj, tuproqdan yaratilgan, xalq bo‘lganida parchalanib ketgan, juda shoshqaloq, isyonga moyil va mag‘rur deb ta’riflanadi, shuningdek buzuq va noshukr, ba’zan johil va zolim kabi sifatlar bilan ham ta’riflanadi.

Abu Homid G‘azzoliyning go‘zallik paradigmalari o‘z davrida ham, hozirgi kunda ham muhim va ahamiyatlidir. G‘azzoliy “Ithyou ulumid-din” asarida kishining shaxsiy kamolotida tasavvufning rolini bayon qilish bilan birga, insoniy munosabatlar, ijtimoiylashuv, ijtimoiy konfliktlar, jamiyatda shaxs axloqi va odobining go‘zal va latif ishlari xususida fikrlaydi<sup>4</sup>.

Aristotel ta’kidlaganidek, ezgulik (go‘zal fazilat) – bu intellektual fazilatlar bilan axloqni qo‘shish uchun asosiy omildir<sup>5</sup>. G‘azzoliy Aristoteldan ruhlanib, mo‘tadillik, ezgulik sifatini tabiat va tipologiya sohasida ko‘rib chiqadi va ezgulik fazilatini yaxshi, go‘zal inson sifatida tanishtiradi. U bu fazilatlar sifatlarini quyidagicha izohlaydi: “Hayosi ko‘p, ozori kam, amali ko‘p, vazmin sabrli, shukrli, qanoat halim, dilkash, uyatchan, mehribon bo‘ladi. La’natlamaydi, so‘kmaydi, chaqimchilik, g‘iybat qilmaydi. Shoshqaloq, kekdor, baxil, hasadgo‘y emas, doimo yuzlari ochiq, jilmayib turadi, didi nozik”.

Aristotelning mo‘tadillik nazariyasidan (taqsimlash tengligi, adolat) unumli foydalangan alloma bu nazariyani qabul qilsa-da, ammo boshqacha tahlil qiladi, inson fazilatlarini son jihatdan ko‘p bo‘lsa-da, ular 4 ta kategorial guruhga bo‘linadi: hikmat, shijoat, iffat va adolat. Bular esa 4 xil kuchlardan kelib chiqqan: aql, kuchli

<sup>1</sup> <https://islamansiklopedisi.org.tr/ahsen-i-takvim>

<sup>2</sup> Asfala sofilin - arabcha so‘z bo‘lib, lug‘aviy ma’nosi baxtsiz, past odam ma’nosida qo‘llaniladi. Asfala sofilin Qur’on atamasi bo‘lib, unda ham pastda ma’nosida qo‘llaniladi.

<sup>3</sup> Islom.uz “Тафсири хилол” kitobidan.

<sup>4</sup> Ғаззолий, Абу Ҳомид. Ихёу Улумиддин (Дунёни англаш китоби). – Т.: Шарқ, 2015. – 304 б.

<sup>5</sup> Музаффаров Ф. Ахлоқ ва ақл орасидаги боғлиқлик: Аристотел ва Ғаззолий нуқтаи назарлари. “Марказий Осиё илмий меросининг инсоният цивилизациясида тугган ўрни”: Республика илмий-назарий конференция тўплами. 2016. – Б.185.

qahr, g‘azab va ehtiros. Har qanday ijobiy kuchlarda bir-biriga zid holatlar chetlanadi, mo‘tadillik ustunlik qiladi. Ezgu fazilatlarini 2 qismga bo‘ladi: birinchisi, intellektual aqliy fazilat, ikkinchisi, axloqiy fazilatlar. Bu ikki jihatlar mo‘tadil (uyg‘un, teng) bo‘lsa, inson go‘zal va mukammal bo‘ladi.

Insonning ilmga intilishi, ilm olishi go‘zal fazilatdir. “Har bir musulmonga talabi ilm qilish farzdir... Bir soat ilm o‘rganish kechasi bilan namoz o‘qib chiqqandan afzaldir. Bir kun ilm o‘rganish uch oy ro‘za tutgandan yaxshiroqdir”<sup>1</sup>. “Insonlarning eng fazilatlisi olimlardir. Ular jamiyatda biron narsaga ehtiyoj tug‘ilsa, bularni qondirishda foyda keltiradilar, ehtiyoj bo‘lmaganda ham ruhingizni boyitadilar”<sup>2</sup>. Ammo, ilm amal bilan go‘zaldir, amalsiz ilm yomg‘irsiz chaqmoq va momaqaldirroqqa, amalsiz olim ipsiz kamonga, zakotsiz mol qoyaga tuz ekkanga, ilmi bo‘laturib, qalbi qattiq kishi toshloq yerga, rag‘bat qilmaydigan kishiga qilingan nasihat qabrda nay chalishga, haromdan qilingan sadaqa siydigi bilan kiyimini yuvgan kishiga o‘xshaydi<sup>3</sup>.

Har kishining izzati va sharofati ilm birla va qudrat birla va yo himmat birla va yo jamoli va surati birla bo‘lur. Ba‘zi odamning ilmiga nazar qilsang, andin johilroq kishi yo‘qdur. Agar dimog‘ini bir tomiriga xalal etsa, xataru halokdadur, va aning iloji nimadur? Va agar aning quvvati va qudratiga boqsang, andin ojizroq nimarsa yo‘qdurkim, agar pashsha va ari nish ursa, uyqusiz va beqaror bo‘lur. Agar ani himmatiga nazar qilsang, taomidin bir no‘xat chog‘liq narsaga zarar etsa, ranjur bo‘lur. Va agar jamoli va suratiga nazar qilsang, mushkuldurkim, ichida bir najosat. Agar ikki kun o‘zini yuvmasa badbo‘ylikdin rasvo bo‘lur. ... odam bu olamda bisyor nuqson va ojizlik va nokaslikda va aning bozori ro‘zi qiyomatdur. Agar kimyoyi saodatni ko‘nglida tutib amal qilsa, hayvonlik martabasidin farishtalik martabasiga yetar. Va agar dunyoga ko‘ngil tutsa, qiyomat kuni it va to‘ng‘iz ul kishidin afzaldur, deb aytadi<sup>4</sup>.

“Mukoshafat-ul qulub” asarida iztirob va huzursizliklar ichida qiynalib yashayotgan shaxs, jamiyat va xalqlarga xotirjamlik hamda saodat yo‘llarini ko‘rsatib kelganligi aytilgan. “Mukoshafa” (“ko‘rinmaydigan narsalarni ochish”, “kashf etish”) qalblarni bosib yotgan g‘ayriinsoniy fe‘l va tuyg‘ularning kashfidir. Jamiyatda baxt-saodat, farovonlik ko‘p jihatdan marhamat, odob-tavoze, ixlos, adolatga bog‘liqdir. Jamiyatdagi xunuklik va fojeaviylik axloqsizlikda, aldov, xasislik, buzuqlik, poraxo‘rlikdadur. Hasad esa qalb kasalligi bo‘lib, buni faqat ilm va amal bilan davolash mumkin. Agar inson qalbida ko‘rolmaslik, bag‘ritorlik, bemehrlik, ochko‘zlik, shahvoniylik bo‘lsa, bu xunuk jihatlarni davolashlari, tarbiyalashlari lozimligini aytadi<sup>5</sup>.

O‘rta asr Sharqi osmon qa‘ridan miltillovchi yulduzlar nuri bilan yoritilgan qorong‘u yoz kechasiga o‘xshaydi, Sharq badiiy olamining ana shunday yulduzlaridan biri buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy bo‘lib, uning betakror obrazlari haqidagi fikrlari shuncha asr davomida insoniyat e‘tiborini tobora o‘ziga

<sup>1</sup> Мухаммад Пайғамбар кассаси. Ҳадислар. – Т.: Камалак, 1991. – 93 б.

<sup>2</sup> Абу Ҳомид Ғаззолий. Мукошафат-ул қулуб. (Миръазиз Аъзам таржимаси.). – Т.: Адолат, 2002. – 250 б.

<sup>3</sup> Имом Ғаззолий. Қирк қудсий ҳадис/Араб тилидан Рашид Зоҳид таржимаси. – Т.: Sano-standart, 2017. – 28 б.

<sup>4</sup> Ғаззолий, Абу Ҳомид. Кимёи саодат. – Т.: Adolat, 2005. – 36 б.

<sup>5</sup> Абу Ҳомид Ғаззолий. Мукошафат-ул қулуб. (Миръазиз Аъзам таржимаси.). – Т.: Адолат, 2002. – 250 б.

tortmoqda. Alisher Navoiy butun umrini go‘zalliklarga xizmat qilishga bag‘ishladi, o‘z ijodida insoniy qadr-qimmat, mehr-oqibatni tarannum etdi. Buyuk shoirning badiiy-estetik merosi insonga va uning go‘zalligiga bag‘ishlangan madhiyadir.

Tasavvufiy qarashlari bilan hammani lol qoldirgan Alisher Navoiy koinotda Xudoning o‘zini namoyon qilishini ko‘radi. Inson yaratilish tojidir. Asarlarida insonni “g‘aroyib”, “gavhar”, “oliy sifat”, “latif”, “sharif”, “atirgul” sifatlarida ulug‘lab, nutq, so‘zlashish qobiliyatini mavjudotlar ichidagi buyuk imtiyozidir deb baholaydi.

Alisher Navoiy yuksak ideal obrazlar, chuqur hissiy boylik izlagan. Shoirning romantik idealining qandaydir mavhumligi monotonlikni, ayol go‘zalligining bir xilligini (sarvdek nozik, qip-qizil yonoqlar, oy kabi qoshlar va boshqalar) yaratdi. Boshqa tomondan, bu an’anaviy tarzda o‘stirilgan tafakkurning barchasi yuksaklik ruhi bilan sug‘orilgan. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida ayol go‘zalligini “Uning qaddi-qomati Jannat savsaniday ozod, yuzi gul, biroq yuz gulning xirmani kabi edi. Uning o‘t rangidagi la‘l toshiday qip-qizil lablaridan harorat ko‘tarilib, o‘sha gul xirmaniga o‘t tutashgan edi. U o‘tdan chiqqan alanga ko‘kka chirmashib, quyoshning boshidan oyog‘ini o‘rtagan”<sup>1</sup>, deb kuylaydi. “Xamsa” asarida Layli obrazida ishq erkinligi, muhabbat tuyg‘usi inson borlig‘ining tabiiy ko‘rinishlari sifatida katta ijtimoiy muammo ko‘taradi. Layli “Chehrasi gulistonida ochilgan olov rang gular bilan jahonga o‘t soladi. Uning boshidagi anbar hidli qora zulflari – gul rang yuzida qora tutun, manglayidagi tilla qoshi go‘yo o‘tdan chiqqan alangalardir. Uning lablari peshonasi, yuziga yoqqan o‘tning cho‘g‘lari edi. ...Qanday chaqin, ofat chaqini yoki u yuz, go‘zallik ravshanligidir. Yuzi atrofidagi gavharlar qanday bo‘lsa, yulduzlar oy bilan shunday bo‘ladi. Uning sochlari ustidagi durrasi vasl shomidagi oydinlikka o‘xshardi. Go‘zallikda boshdan-oyog‘igacha chiroyli, sevimlidir”<sup>2</sup>.

Navoiy sof an’anaviy insoniy go‘zallikdan chuqur insonparvarlik sari ko‘tariladi. Uning uchun irq, millat va boylikka hech qanday to‘siq yo‘q, haqiqiy inson insonga, millatga yaqinligi naqadar kuchli namoyon bo‘lishi bilan ajralib turadi. Asarlarida yaratilgan obrazlar turli millat vakillari bo‘lib, sevgi-muhabbatning millat yoki irq tanlamasligini, boylik yoki kambag‘allikka aloqasi umuman yo‘qligini ta’kidlaydi. Bunday hukmlar buyuk jasorat va go‘zallik timsoliga yangicha yondashuv edi. Navoiy uchun go‘zalning jinsi ham, jamiyatdagi mavqeyi ham qadrli emas, uning o‘zi shirin jonzot sifatida ilhom manbayidir.

Inson mohiyatini idealistik talqin qilishiga qaramay, Navoiy insonga bo‘lgan muhabbatini ifodalagan asarlaridagi insonparvarlik g‘oyalari bilan buyukdir. Uning ilk lirikasida shoir tasavvurida yaratilgan go‘zallik eng ko‘p tarannum etildi. A.Navoiy an’anaviy g‘azal doirasida o‘z mahbubining yangidan yangi qirralarini ochib bordi. A.Navoiy lirikasida insoniy his-tuyg‘ular hukmron bo‘lib, insonning jismoniy go‘zalligi oldida ham ta’zim qiladi. A.Navoiy g‘azallarida asosan

<sup>1</sup> Navoiy Alisher. Farhod va Shirin. (Nasriy baen muallifi Fafur Gulom.) – T.: Adabiёт va sanъat nashriёti, 1975. – 117 б.

<sup>2</sup> Navoiy Alisher. Layli va Mажnun. (Nasriy baen) – T.: Fafur Gulom nomiдаги Adabiёт va sanъat nashriёti, 1990. – 268 б.

insonning tashqi go‘zalligini kuylagan bo‘lsa, she’rlarida insonning ma’naviy go‘zalligini, axloqiy kamolotini yuksak baholagan.

“Hayrat ul-abror”, “Lison ut-tayr”, “Saddi Iskandariy”, “Farhod va Shirin”, “Sab’ayi Sayyor”, “Majolis un-nafois”, “Mahbub ul-qulub”, “Nazm ul-javohir”, “Layli va Majnun” va boshqa ko‘plab asarlarida go‘zallik tushunchasi falsafiy-estetik nuqtayi nazardan ta’riflanadi. Alisher Navoiy ma’naviy merosining tahlillari shuni ko‘rsatadiki, go‘zallik alloma nazdida, birgina Haqqa (“Alloh go‘zal”) tegishlidir, bu jihatlari bilan tasavvufiy qarashlarini namoyon qiladi. Tasavvufga ko‘ra: Olam – Parvardigorning ijodi hisoblanadi. Ilohning ko‘zgidir. Jamiki go‘zalliklar manbasi – Allohdir, voqelikdagi go‘zalliklar Alloh jamolining aksidir, ma’naviy go‘zalliklarni anglash va koinot sarvari ruhi azaliyga monand narsalarning go‘zalligini qabul qilish yo‘lidagi pillapoyalardir.

Alisher Navoiyning falsafiy qarashlari aks etgan asarlaridan biri “Lison ut-tayr” asari debochasida “Alloh go‘zal”ligi madh etiladi, osmonning betinim harakati, hayotiyli, yomg‘irning ozodalik, poklovchi funksiyalari, tog‘ va cho‘qqilar, dengiz va kemalar, chiroyli bog‘-u rog‘lar, fasllar va yer, quyosh va oy, gullar, daraxtlar kabi jamiki borliqda mavjud bo‘lgan tabiat hodisalari va sirlari “jilvalanadigan go‘zalliklar” deb ta’riflanadi. Insonni barcha narsalardan mumtoz qilib, bir hovuch tuproqdan mukammal va chiroyli qilib yaratdi, bu chiroylilikni odamiylik deb ataydi.

Dissertatsiyaning **“Tasavvuf ma’naviy merosiga zamonaviy munosabat va milliy san’atda tutgan o‘rni”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida zamonaviy o‘zbek san’atida tasavvuf mavzusi va musulmon san’atida tutgan o‘rni; O‘zbekiston turizmi istiqbollari kontekstida ziyoratgohlarning ma’naviy, tarbiyaviy, diniy imkoniyatlari masalalari tadqiq etilgan.

San’atning turli yo‘nalishlarida (tasviriy san’at, me’morchilik, she’riyat, musiqa) tasavvufiy go‘zallikning immanent jihatlari (oddiylik, jo‘nlik, kamtarlik, vatanparvarlik, halollik, insoniylik, mehr-muruvvat, poklik) san’at asarlarini mazmunan boyitib kelishi, uning insonga beradigan zavqi, o‘z-o‘zini anglashdagi ahamiyati ochib berilgan.

Islom va tasavvuf mavzusi zamonaviy o‘zbek san’atining dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Bu sohada faoliyat yuritayotgan ijodkorlar o‘z asarlarida voqeaning bir bo‘lagini tasviriy tilda, bir bo‘lagini ranglar oqimida, qolganlarini badiiy tilda ochib beradilar. Ijodkorlar tarixiy, diniy mavzularni yoritishda XX asr san’atidan farqli ravishda, avvalgilariga o‘xshab obrazlar talqinida shartli yechimlarga o‘tib ketmadilar. Asarlarida hayot falsafasining ichki – botiniy jihatlarni badiiy usulda tasvirlashga harakat qilmoqdalar, olam, borliq, inson to‘g‘risidagi go‘zal g‘oyalarni ramziy tasavvurlar bilan tushuntiradilar. Bu asarlarda faqat ijodkorning maqsadigina emas, tarix va taqdir bilan bog‘liq rivoyat va hikoyalar ham o‘z badiiy tasvirini topmoqda.

Rassomlar Akmal Ikromjonov, Sobir Rahmetov, Rahmon Shodiyev, Baxtiyor Mahkamov, Rahim Rizomuhamedov, Akmal Nur, Muxtor Esanov, Ortiqali Qozoqov, Jamol Usmonov, Ablakim Turdiyev, Fayzulla Ahmadaliyevning diniy mavzudagi asarlari so‘fiylar hayotini falsafiy-poetik ramzlar va tashbehlar, majozlarga boy yechimlarda taqdim etar ekan, ularning ezgulik, ilohiy ishq yo‘lidagi

zahmatlari, taskinlikka yo‘g‘rilgan hayot tarzlarini mushohada qilishga chorlaydi. Bunday lavhalar “Suv eltayotgan darvesh” (1990-y.), “Yolg‘iz karvon” (1990-y.), “Devor” (Darveshlar. 2001-y.), “Darveshning yuragi” (2000-y.), “Uxlayotgan darvesh” (2000-y.), “Uch darvesh” (2004-y.), “Darveshning tushi” (2009-y.) kabi qator ishlari misol bo‘la oladi.

Akmal Nur ijodiga murojaat etish, shundan dalolat beradiki, u Sharq mamlakatlari rivoyatlari va badiiy yo‘nalishini shunchaki oddiy takrorlamaydi. U bir lavha, manzara va ko‘rinishdan boshqa mavzuga o‘tar ekan, Sharq xalqlari tarixi va taqdirida bo‘lgan badiiy-estetik ulug‘vorlik va majoziy hamohanglik mavjudligini obrazlar talqini orqali ta‘kidlaydi. Sharqona mavzular uyg‘unligi, mavzular yaqinligi va tasviriy uslubning nafisligi rassomning sharqona islom dini tarixi, taqdiri va istiqboliga nisbatan bo‘lgan o‘ta noziklik ifodasidir. Rassomning 1990-yili ishlagan “Anor”, “Oila”, “Eltuvchi ho‘kiz”, “Namoz”, “Tutashish” asarlarida insoniy va diniy tasavvurlar chirmashib ketadi. Xalqimizda yangi chiqqan oyga qarab duo o‘qish, yaxshi niyatlar qilish mavjud. Lekin hech kimning qo‘li yangi oyga yetib chiqmaydi. Rassom asarni shunday ishlaganki, insonning yaxshi niyati, intilishi chegarasiz. Inson va koinot o‘rtasida sirli, jumboqli munosabat mavjud. Inson ana shu jumboqni ochish uchun intiladi. Buning uchun u osmon sari intilib, hatto oy bilan tutashishga to‘g‘ri keladi. Asarda keksa kishining o‘roqday yangi oyga qo‘l cho‘zib, duolar bilan nafas olayotgani nihoyatda jozibali ishlangan. “Namoz” kartinasi ham chuqur insoniy ehtiros va ishonchning dunyodagi eng nozik kechinmalar ekanligini ko‘rsatishga qaratilgan.

Rassom B.Mahkamov kartinalarida ham tasavvufona hayot tarzi, an‘ana va madaniyatlar keng o‘rin egallagan. Uning “Ikki eshik orasida”, “O‘tkan kunlar”, “Eski shaharga kirish” nomli kartinalarida tasavvufiy qarashlar o‘zini namoyon qiladi. Hashamat, qimmatbaho bezaklardan yiroq hovli va uy-joylardagi oddiylik va soddalikdagi go‘zallikni ochib bergan. Insonni yaqin o‘tmishini his qilishga undaydigan bu asarlarda tabiat bilan yaqin aloqadorlik, muhabbat, poklik, halollik, sokinlik, tinchlik-xotirjamlik ifodalangan. Ranglardagi uyg‘unlik esa tarixni, o‘tmishni, o‘zligimizni, tabiatdagi musiqani anglatadi. Ijodkorning maqsadi tasavvufona hayot tarzini ifodalash orqali milliy merosimiz va milliy qadriyatlarimizni anglash, ularni avaylab-asrashga da‘vat etishdir.

Tasavvuf mavzusi ruhida yaratilgan san‘at asarlari qalb go‘zalligi va nozikligining, tuyg‘ular teranligining, ilhomlanish madaniyatining paydo bo‘lishiga asos bo‘lib xizmat qilgan. Zamonaviy san‘at asarlarida tasavvuf mavzusining obyekt darajasiga olib chiqilishi bu oddiy go‘zallik, o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlarni his qilish, ajdodlarimiz qo‘lga kiritgan yuksak madaniy va ma‘naviy yutuqlardan bahramand bo‘lish va ularni yana bir bor tarix sahifalariga muhrlashdir.

Tasviriy san‘atda avliyolar, farishtalar, muqaddas ziyoratgohlar va shunga o‘xshash tasavvufiy mazmundagi asarlar juda ko‘p. Alloh yaratgan dunyoning bepoyonligi, xilma-xilligi va go‘zalligi san‘atning boshqa ko‘rinishlarida, ya‘ni kalligrafiya, xattotlik va ulug‘vor Sharq miniatyurasida mujassamlashgan. Mazkur rasmlarda, ijodkor tasavvufona oddiy va faqirona hayot tarzini go‘zallik darajasiga olib chiqqan, asarda milliy madaniyatimiz, hayot falsafamiz, milliy merosimiz an‘analari chuqur ifodalangan. Kartinalarni kuzatayotgan kishi qalbida milliylik, ajdodlar ruhini his qilish holatlari kuzatiladi. Shuningdek, Islom

madaniyatida Alloh tomonidan yaratilgan dunyoning bepoyon xilma-xilligi va go‘zalligi san’atning boshqa ko‘rinishlarida, ya’ni kalligrafiya, xattotlik va arnament naqshlarda ham mujassamlashgan. Qur’oni Karim oyat va suralari bilan masjid va minoralar, peshtoq yo‘llari va muhtasham binolarning devorlari bezatilgan. Me’morchilik, arxitektura, musiqa, adabiyot, kino, teatr kabi ko‘plab san’at turlarida badiiy asarlarni yaratishda tasavvufiy merosga alohida e’tibor qaratiladi.

O‘zbekiston hududi qadimiy madaniyat markazlaridan biridir. Dunyo mamlakatlari vatanimizni yaqindan tanishini, xalqimizning boy tarixi va madaniyatini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rishini istar ekanmiz, bu istaklar aynan turizm imkoniyatlari hisoblanadi. Turizm sohasini rivojlantirish va uni yangi bosqichga ko‘tarish borasida, avvalo, ko‘hna madaniy va arxitektura yodgorliklariga boy bo‘lgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Marg‘ilon kabi shaharlar muhim ahamiyatga ega. Bu shaharlarni butun dunyo aholisini o‘ziga jalb qiluvchi qadimiy tarixiy yodgorliklar, madrasalar va qadimgi inshootlardagi naqshlar jahon Islom me’morchiligining eng go‘zal namunalaridan biriga aylantirgan. Jumladan, Samarqanddagi Registon maydoni, yana ko‘plab tarixiy obidalar, qadamjolar, ziyoratgohlar borki, ularning ayrimlari ancha mashhur bo‘lsa-da, ba’zilari faqat mahalliy aholiga ma’lumdir.

VIII asrda yurtimizga islom dini va madaniyatining kirib kelishi bilan ulug‘ allomalar, avliyolarga bo‘lgan e’tiqod kuchaydi. Ularning vafotidan so‘ng qabrlari obod qilinib, ziyoratgohlarga aylantirilgan. Avliyolarning qadamjolariga borib ziyorat qilishning sababi shundaki, avliyolarning hurmatini bajo keltirish, ular yaratgan ma’naviy merosni o‘rganish, kelajak avlodga ajdodlari to‘g‘risida ma’lumotlar berishdir. Bu hodisa o‘zbek millatining mental xususiyatlaridan birini tashkil qiladi.

“Ziyorat” atamasi arabchadan, “biror yerga yoki shaxs huzuriga borish” ma’nosini anglatadi. Islomiy ma’noda – muqaddaslashtirilgan mozorlar, qadamjolar, ziyoratgohlarga borib, ma’lum bir rasm-rusumlarni bajarish, qalbni poklashdir. Mamlakatimizning barcha hududlarida bunday maskanlar talaygina, ular nafaqat diniy-ma’rifiy maskan, balki yuqorida aytganimizdek, yoshlarimizni tarbiyalashdagi o‘ziga xos tarbiya o‘chog‘i funksiyasini ham bajarmoqda.

Mamlakatimizda muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlar xalqaro ruhiy taskin beruvchi, savobli ishlarni amalga oshiruvchi maskan sifatida emas, balki uning yanada imkoniyatlarini yuksaltiruvchi turistik maskanlarga aylantirishni taqozo etadi. Ziyorat turizmini rivojlantirish ham boshqa turizm sohalari kabi mamlakatimiz milliy va mintaqaviy iqtisodiyotini mustahkamlashda muhim o‘rin egallaydi. Zero, “Ziyorat turizmi bo‘yicha mamlakatimizning salohiyati juda yuqori”<sup>1</sup> bo‘lib, hozirgi kunda musulmon mamlakatlari uchun vizasiz rejim yaratilgan.

Samarqand zaminida minglab taniqli shaxslar, yuzlab allomalar va o‘nlab eng buyuk imom-allomalar o‘tishgan. Hozirgacha birgina Samarqand zaminida dunyo miqyosidagi eng buyuk allomalardan 25 nafarining tarixlari va qabrjoylarini aniqlaganmiz. Bu chegara bo‘lmay, kelgusi tadqiqotlar natijasida ularning soni

---

<sup>1</sup> Туризм мамлакатимиз иқтисодиётининг эртанги куни. <https://uzlidep.uz/news-of-party/14351>

kengayishi aniq. Eng buyuk allomalarning aksariyatlari fiqh, hadis, kalom allomalari bo‘lishib, qolganlari tasavvuf tariqati peshvolari va davlat arboblari bo‘lishgan<sup>1</sup>.

Qadimiy tarixchi Yoqutining shahodat berishicha, Xudo asragan shahar Samarqandda yashash va vafot topib ko‘milish juda katta sharaf hisoblangan; kimki Samarqandda vafot etsa, go‘yo yettinchi osmonda vafot etgani kabi hisoblanar va maloikalar qatorida jannatga kirar ekan. Albatta, bu rivoyat-u naqlar Samarqanddagi ulug‘ ziyoratgohlarga dafn etilgan buyuk imomlar, mutasavvuf allomalar hamda ularning izdoshlari haqida aytilgandir<sup>2</sup>.

Movarounnahr olimlari oltin silsilasini boshlab bergan eng avvalgi imomlar Imomi ad-Doramiy as-Samarqandiy; keyinchalik ul zotdan ilm bobida o‘zib ketgan shogirdi va butun dunyo imomi nomi ila sharaflangan al-Buxoriy; islom olamining aksariyatini tashkil etgan sunnat ahli va jamoasining raisi, kalom-aqoid (e‘tiqod) ilmining asoschisi Imom al-Moturudiy as-Samarqandiy; ilmi hikmat va haqiqat asoschisi buyuk Imom Abul Qosim al-Hakim as-Samarqandiy; kalom va fiqh ilmining buyuk davomchisi Imom Abu Lays as-Samarqandiy; islom olamidagi eng ulug‘ mazhab bo‘lgan Hanafiya mazhabining buyuk fiqhshunos olimi Imom Burhoniddin Marg‘inoniy as-Samarqandiydan nafaqat islom ahli, balkim dunyodagi barcha ilm ahllari rozidirlar hamda ilmiy jasoratlaridan abadul-abad minnatdorlar<sup>3</sup>.

Tadqiqot doirasida Samarqand shahridagi Xoja Ahror Valiy mavzoleyiga, Shohizinda tarixiy obidalariga, Mahdumi A‘zam qadamjosiga, Jomboy tumanidagi “Vali Bobo” ziyoratgohiga tashrif buyurdik. Ko‘pchilik ziyoratchilar, turistlar bilan suhbatlashdik. Tasavvuf allomalari qadamjolari-ziyoratgohlarini bilasizmi, mazkur qadamjolariga nima maqsadda tashrif buyurasiz, bu ziyoratgohda kimning qabri borligini, uning shaxsi va qanday inson bo‘lgani to‘g‘risida ma‘lumotingiz bormi, degan mazmunda berilgan savollarga ziyoratchilar tomonidan “Ha, bilaman”, “Birinchi kelishim”, “Avliyo bo‘lgan deb eshitganman”, “Endi bilaman-da”, “Niyat qilib keldim”, “Farzandli bo‘lmoqchi edim”, “O‘qishga kirmoqchimani”, “Yengillik deb o‘ylayman” qabilidagi javoblarni berishdi.

Samarqand qadimdan el orasida mashhur bo‘lgan tarixiy shaxslar, allomalar, avliyolar, so‘fiylarning yashab o‘tganligi, ularning qabrlari ustiga hurmatlari uchun maqbaralar, xonaqohlar qurilganligi bilan ham mashhurdir. Aziz-avliyolarning mozorlarini, qabristonlarni ziyorat qilib turish islom dinida savobli ish hisoblanadi. Ziyoratgohlarga borish, ularni e‘zozlash diniy qadriyat hisoblanadi. Din aholini eng oliy, ruhiy, axloqiy va ma‘naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qiladi. Kishilar turmushdagi shaxsiy musibat va omadsizlik, ayniqsa, befarzandlik, yaqin kishilarining baxtsizligi, hayot ideallaridan ajralib qolish, kasallik yoki o‘limdan xavfsirash, yolg‘izlik his-tuyg‘usi va shu kabi boshqa ijtimoiy-psixologik omillar insonlarni diniy hissiyotlarga berilish natijasida ziyoratgohlarga borishlariga sabab bo‘lgan.

Ajdodlarimizdan bizga meros bo‘lib qolgan bu an‘ana, ya‘ni buyuk, aziz deya ulug‘lanadigan go‘zal qalb va ijod sohiblarining qabrlariga tashrif buyurib, ularning

<sup>1</sup> Каттаев К. Юртимизнинг ўта буюк алломалари, Имом Али Суғдий ва Кумушкент тарихи. Илмий-оммабоп рисола. – Т.: Наврўз, 2020. – 4 б.

<sup>2</sup> Самъоний. Китабул-ансоб (тадж.Ш.Камолиддинов). – Т., 1993. – 78 б.

<sup>3</sup> Каттаев К. Самарқанднома. – Т.: Mashhur-press, 2017. – 16 б.

ruhlari shod bo'lishlarini tilab, duolar qilib, shu asnoda, odamlar ham o'zlarining qabrlarini mehr va g'ururga, ishonch va umidga to'ldirib, ma'naviy poklanib ziyoratlarini amalga oshiradilar. Shu sababli o'z tarixiy makon va zamonida ilm, din borasida mashhur bo'lgan tasavvuf allomalarining mamlakatimiz bo'ylab joylashgan qadamjolaridan diniy turizmni rivojlantirish imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, davlatimizda turizm istiqbollaridan muvaffaqiyatli natijalar kutilayotgan keng islohotlar davrida tasavvuf allomalari qabrlariga e'tibor qaratish, ularni yirik ziyoratgohlarga aylantirish hamda ularning ijodi va faoliyati bilan tanishish imkoniyatini beruvchi muzeylar tashkil etish, obodonlashtirish va homiylarni jalb qilish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zarur, ikkinchidan, kelajak avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ajdodlarimizning ibratli hayoti, e'tiqodi, dunyoqarashini har tomonlama o'rganish, asarlarining tub mohiyatini tushunish maqsadga muvofiqdir, uchinchidan, yoshlarni vatanparvar, bag'rikeng va jonkuyar, saxovatli, diyonatli shaxs sifatida tarbiyalashda ajdodlarimizning tajribalari metodologik manba bo'lib xizmat qiladi.

## XULOSA

Amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Tasavvuf falsafasini o'rganish fanlararo yondashuvni talab qiladi. Tasavvufda go'zallikni metodologik jihatdan tadqiq etish keng ko'lamli mohiyatga ega. Go'zallik tasavvuf falsafasida diniy va dunyoviy konseptuallikka ega. Islom falsafasida go'zallik tuchunchasi muhim atributlardan hisoblansa-da, go'zallikka munosabat ko'rinmaydi. Tasavvuf falsafasida esa go'zallik va unga munosabat keng aspektlarni o'z ichiga oladi hamda muhim ahamiyatga egadir. Ammo tasavvuf falsafasidagi go'zallik paradigmalari G'arb va Sharq olimlari ilmiy izlanishlarida kam o'rganilgan. Tasavvuf falsafasida go'zallikni tushunish va tushuntirishga katta e'tibor qaratilganini olib borilgan tadqiqotlarimiz yaqqol namoyon etadi.

2. Tasavvuf ilmi allomalari ijodlarida estetik, badiiy tajriba din va tasavvuf, hayot va falsafa, nazariya va amaliyotni mahorat bilan birlashtirganlar. O'z davri mentalitetini yaxshi tushunishgan, san'at va go'zallikning inson qalbiga yaqinligini bilishgan. Diniy va tasavvufiy qarashlar, real hayotdagi voqelikni badiiy ifodalab, yaxlit estetik tizim ishlab chiqishgan. A.Yassaviy, N.Kubro, B.Naqshband, Forobiy, Ibn Sino, U.Xayyom, G'azzoliy, A.Jomiy, A.Navoiy asarlarida estetik jihatlarining tasavvufiy dunyoqarash tizimidagi o'rni aniqlashtirib berilgan. Bugun inson ma'naviyatini yuksaltirish, ma'naviy qashshoqlashuvga qarshi kurashish, odob-axloqqa ommaviy madaniyatning salbiy ta'sirini kamaytirish dolzarbdir. Shu maqsadda, ajdodlarimiz tajribalarini, nasihatlarini, hikmatli va ibratli hayotlarini o'rganish o'rinlidir.

3. Tasavvuf manbalari nazariy, falsafiy, badiiy shakllarga bo'linadi. Tasavvufiy maqsad turli qarashlar bilan uyg'unlashib ko'pma'noli xususiyat kasb etadi. Tasavvuf, so'fiy atamalari ham ko'pma'nolidir. Ko'pma'nolilik murakkablikni, murakkablik nochizizlikni, nochizizlik sinergetik xususiyatni

